



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 5-iyul, shanba,
77 (24.103)-son

O'zbek xalq
maqoli

So'z
nayzadan
o'tkir

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

IPAK YO'LI'DA MULOQOT

"Ipak yo'li" xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasida shu nomdagi forum tashkil etildi. Unda Butunjahon turizm tashkiloti bosh kotibi Zurab Pololikashvili va Jahon turizm alyansi raisi Chjan Syoy, O'zbekiston turizm qo'mitasi raisi Umid Shodiyev, viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev hamda turli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.



Viloyat rahbari "Ipak yo'lida muloqot" forumi turizm sohasidagi imkoniyat va istiqbol, muammo va yechimlar bo'yicha muloqot qilish uchun muhim maydon

bo'lib xizmat qilishini ta'kidladi. - Umumiy maqsadimiz turizmni nafaqat iqtisodiy manfaat keltiruvchi, balki dunyo xalqlarini yaqinlashtiruvchi, tinchlik

va barqarorlikka xizmat qiluvchi sohaga aylantirish, - dedi Adiz Boboyev. - Bugun mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan Samarqand mana shunday maydonga aylanmoqda, sayyohlar oqimi yildan-yilga oshib, turizm sohasida jiddiy islohot va o'zgarishlar bo'layotgani ham shu maqsadlarga qaratilgan. Bu kabi islohotlar tinch va sayohat uchun qulay shahar sifatida Samarqandning nufuzi yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Uch kun davom etgan Forumda mamlakatimizning barcha hududlari hamda Xitoydan kelgan 200 nafarga yaqin turizm sohasi vakillari ishtirokida B2B uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Unda turizm sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida yangi loyihalar va investitsion imkoniyatlar muhokama qilindi. Mehmonlarga O'zbekiston turizm salohiyati namoyish etildi.

Xorijlik va mahalliy ekspertlar tomonidan turizm sohasi istiqbollari, uni rivojlantirish, o'zaro hamkorlikda ishlash masalalari yuzasidan ma'ruzalar qilindi.

Prezident qaroriga ko'ra



Samarqandda yana bir shaharcha quriladi

2024-yil 29-dekabrda Prezidentimizning "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, viloyatimizdagi jismonan va ma'nan eskirgan hamda avariya holatidagi bir va ikki qavatli uy-joylar o'rnida renovatsiya dasturi asosida zamonaviy ko'p qavatli majmualar barpo qilinadigan mahallalar belgilangan.



Qarorga asosan, Samarqand shahridagi Matonat, Mehnat, Maysazor, Temiryo'lchilar, Ipak yo'li, Baraka, Nurafshon, Nafosat, Sadaf, Bag'dod mahallalarining 274,52 gektar maydonida joylashgan 2880 ta bir va ikki qavatli uylar o'rnida qiymati 1 milliard 129,5 million dollarlik 494 ta yangi va zamonaviy ko'p qavatli uylar quriladi. Shuningdek, qarorga asosan, Kattaqo'rg'on shahridagi G'ishtmachit, Past Darg'om tumanidagi Mirzato'p, Samarqand tumanidagi Buxoriy, Urganji, Yuqori turkman, O'rta Turkman, Quyi Turkman, Kattaqo'rg'on tumanidagi Navbahor, Bulung'ur Guliston, Paxtachidagi Istiqbol, Jomboydagi Shodlik, A.Navoiy, Guliston, Narpaydagi Tinchlik mahallalarida ham renovatsiya dasturi asosida yangi zamonaviy ko'p qavatli majmualar barpo qilinadi.

Samarqand shahridagi temiryo'lorti hududida 301 gektar maydonda renovatsiya dasturi amalga oshiriladi, - deydi shtab boshlig'i Akbar Bahriyev. - Jaryon bir necha bosqichda, 5-6 yil davomida olib boriladi. Birinchi bosqichda yil yakunigacha renovatsiya dasturi asosida hududdagi Baraka, Ipak yo'li, Temiryo'lchilar, Maysazor, Mehnat va Matonat mahallalarida yo'l bo'yidagi 596

ta xonadon buzilib, o'rnida 12 qavatli uylar quriladi. Renovatsiya dasturiga kiritilgan hududning 141,2 gektari turar-joylar, 21,6 gektari ma'muriy markaz va xizmat ko'rsatish binolari, 50,2 gektari asosiy avtomobil yo'llari, 8 gektari qabriston hududi, 63,6 gektari murakkab relefli yerlar, qabriston, sanitar himoya va yashil hudud, 16,4 gektari loyihaviy sanoat hududlariga bo'lingan. Dasturga asosan, 43 ta 16 qavatli (5056 xonadon), 185 ta 12 qavatli (16756 xonadon), 128 ta 10 qavatli (9424 xonadon), jami 30996 xonadonli 356 ta ko'p qavatli yangi zamonaviy uylar quriladi. Hududda ko'p tarmoqli tibbiyot punkti, oliy ta'lim muassasasi (yotoqxona binosi bilan), sport sog'lomlashtirish markazi, mehmonxona, akva park, restoran, savdo va ko'ngilochar markaz, 1980 o'rinni umumta'lim maktabi, 990 o'rinni o'quv bloki, ekobozor, ko'p qavatli avtoturargoh, boshqaruv servis kompaniyasi, saylgoh bunyod etiladi. Bugungi kunda hududda eski va avariya holatidagi uylarni mulkdorlar bilan kelishgan holda buzish va yangi shaharchaga tamol toshi qo'yish uchun hozirlik ko'rilmog'adi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Сенат мажлисидан сўнг



Ядро фақат хавф дегани эмас ...

Қонунчиликда тизимда халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш ва замонавий стандартларга риоя этиш нормалари белгиланди

Сенатнинг саккизинчи ялпи мажлисида "Ядровий зарар учун фуқаролик жавобгарлиги тўғрисидаги Вена конвенциясига (Вена, 1963 йил 21 май) Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши ҳақида"ги Қонун кўриб чиқилди.

Ижтимоий тармоқларда мазкур масала атрофида турли гап-сўзлар бўлмоқда. Шу боис қонун жамиятимиз ва аҳолимизга нима беради, уни қабул қилишдан мақсад нима, деган саволларга жавоб беришни лозим, деб топдик.

Зотан, қайд қилинган Конвенцияга қўшилиш орқали, эътибор қилинг, фуқаролик ядро объектларида содир бўлган ҳодисалар оқибатида етказилган зарар учун жавобгарлик режими, зарарни қоплаш тартиби, муддатлари ва тамойилларини белгилайдиган асосий нормалар татбиқ этилади. Шунингдек, ядровий жавобгарлик режими ядровий фалокат юз берган тақдирда Ўзбекистон халқига тоvon тўламини таъминланади.

Умуман, Вена конвенциясига қўшилиш зарарни қоплашнинг халқаро миқёсда тан олинган ҳуқуқий механизмларини таъминлаб, жабрланувчиларни ҳимоя қилишни кучайтиради, ядровий қурилмалар операторининг аниқ мажбуриятларини белгилайди ва юзага келиши мумкин бўлган зарарларни қоплаш учун ишончли молиявий фаолатларни яратди.

Шу билан бирга, миллий ядро хавфсизлиги тизимига ишончли оширади, халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлайди ва ядровий жавобгарлик соҳасидаги замонавий стандартларга риоя этилишини

таъминлайди.

Мазкур ҳужжатнинг асосий мақсади ядровий қурилма оператори томонидан бошқариладиган иншоотларда содир бўлган ҳодисалар натижасида юзага келган ядро зарари учун операторнинг жавобгарлигини, шунингдек, ядро зараридан молиявий ҳимояни таъминлаш учун минимал талабларни белгилашдан иборат.

Ўзбекистоннинг Вена конвенциясига қўшилиши ядро энергетикаси ва хавфсизлиги соҳасида халқаро ҳуқуқий майдонга киришини таъминлашга, ядровий хавфсизликни кафолатлашга, ядровий зарардан жабрланувчиларнинг ҳуқуқларини муносиб ҳимоя қилишга, давлатнинг ядро энергетикаси соҳасидаги маъмулий аниқ белгилашга ҳамда ядро энергетикаси соҳасида суғурта тизими ва компенсация механизмларини жорий этишга хизмат қилади.

Бундан ташқари, Ўзбекистоннинг Атом энергияси халқаро агентлиги билан ҳамкорлик алоқалари янада кенгайтирилади ва унинг дастурлари доирасида истиқболли лойиҳаларни амалга ошириш ишлари фаоллашади.

Марям НИЁЗОВА,
Олий Мажлис Сенатининг
Мудофаа ва хавфсизлик масалалари қўмитаси аъзоси.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Xurshid DO'STMUHAMMAD,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, adib:

- Gazeta o'z umrini o'tab bo'ldi, degan so'z kitob o'z umrini o'tab bo'ldi, deganidir! Non yemay ham yashash mumkin, deganidir! Yuz yillar mobaynida ta'lim-tarbiya bergan ustoz muallimdan yuz o'girish demakdir!

Yaqinda bir nechta hamkasblarim Kattaqo'rg'ondagi shifo maskanida salomatligini tiklash uchun borib kelishdi. Ularning aytishiga qaraganda, mazkur maskanda xorijdan kelib davolanuvchilar shunchalik ko'pki, hatto ular uchun binoning bir nechta qavatini ajratib qo'yilgan ekan. Tabobat yo'nalishida faoliyat yuritayotgan mazkur maskanga nafaqat MDH davlatlari fuqarolari, balki Yevropadan ham keluvchilar uchraydi.

Rostdan ham bugun mamlakatimizdagi an'anaviy tibbiyot muassasalari-dan foydalanishda qo'shni davlatlar fuqarolari tomonidan murojaatlar soni oshib bormoqda. Bu nafaqat tabiiy

Tibbiy turizm:

Xorijliklar nega Samarqandni tanlashmoqda?

sharoit, tajribali shifokorlar salohiyati, balki sohadagi izchil islohotlar, tibbiyotga eng zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, shifokorlarning xorijda malaka oshirishiga e'tibor qaratilishi bilan bog'liq.

Qolaversa, Samarqand tibbiy turizm sohasida ko'p-qirrali imkoniyatlarga ega. Viloyatda davlat va xususiy yo'nalishlarda sog'liqni saqlash sohasi rivojlanib borayotgani qatorida tabiiy shifobaxsh manbalar, ayniqsa, mineral suvlar va loylar, tabiiy imkoniyatlar mavjudligi bilan ham e'tiborni tortadi. Samarqand va uning atrofidagi sanatoriyalar va tibbiy markazlar mehmonlarga turli xil davolash va rekreatsiya xizmatlarini taqdim etadi.

Quyida chet el fuqarolariga eng ko'p xizmat ko'rsatib kelayotgan markazlardan biri - viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi misolida bugungi tibbiy turizm dara-



jasi bilan tanishamiz. Markaz rahbari Lutfulla Mahmanovga ko'ra, ushbu tibbiyot muassasasiga keyingi yillarda qo'shni davlat fuqarolaridan eng ko'p Tojikiston Respublikasidan bemorlar murojaat etgan. Buning sababi markazda malakali tibbiy xodimlar faoliyati hamda sifatli tibbiy xizmatlar va yuqori texnologik diagnostika va davolash usullari yo'lga qo'yilganligi hamda buyrak, jigar, suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiya si amaliyotlari boshqa chet davlatlar tibbiyot klinikalariga nisbatan arzonligi bilan bog'liq.

Markazda 2024-yil davomida jami 50 nafar chet el fuqarolari statsionar sharoitda, 685 nafar ambulator sharoitda davolangan. Jumladan, Tojikiston Respublikasidan jami 659 nafar, Rossiya Federatsiyasidan 21 nafar, Qozog'istondan 13 nafar, bemor murojaat qilgan.

Bir qator mutaxassislarimiz Tojikiston Respublikasining Panjkent viloyati shifoxonalarida markazimizda joriy qilingan zamonaviy yuqori texnologik operatsiyalar, yangi turdagi diagnostik tekshiruvlar, murakkab amaliyotlar to'g'risida

ko'rgazmali taqdimotlar o'tkazib kelishdi va kelajakda o'zaro hamkorlikda ishlar olib borishga qaror qilindi, - deydi Lutfulla Mahmanov. - Chet el fuqarolarini markazga yanada ko'proq jalb qilish maqsadida tibbiy xizmatlar uchun to'lovlar yengillashtirildi. Tibbiy xizmat turlari esa kengaytirilib, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash kengaytirilmoqda.

Bu albatta, viloyatdagi faqat bitta markaz tomonidan tibbiy turizmga oid ma'lumotlar. Aslida, boshqa markazlarga xorijiy fuqarolardan murojaatlar ham oshib bormoqda. Viloyat tibbiy muassasalariga Bangladesh, Qatar, Hindiston, Ummon kabi ko'plab davlatlardan murojaatlar qayd etilmoqda. Agar sifatli tibbiy xizmat va qulay narxlar uyg'unligi targ'ib qilinsa, bu yo'nalishda xizmat ko'rsatish hajmi oshib borishi tayin.

Qolaversa, yuqorida aytilganidek, viloyatda shifobaxsh ne'matlar mavjud maskanlar ham o'z emas, ularning targ'ibotini ham yo'lga qo'yish lozim.

Anvar MUSTAFOQULOV.

Иллатни тарбия орқали энгиш мумкин

Жамият тараққиётига тўсиқ бўлаётган энг катта иллатлардан бири - коррупция. Уни фақат қонуний жазо орқали эмас, балки инсонни болаликдан ҳалоллик руҳида тарбиялаш орқали энгиш мумкин.

Техникум ва политехникумларда ўқувчиларга нафақат касбий кўникмалар, балки фуқаролик онгини шакллантирувчи маънавий-ахлоқий билимлар ҳам берилиши зарур. Чунки коррупцияга қарши кураш маданият, ҳалоллик, адолат, жавобгарлик каби қадриятлардан бошланади. Бу қадри-

ятларни ёшлар онгига сингдириш ўқитувчи ва мураббийларнинг асосий бурчи бўлиши керак. Коррупция ҳар қандай соҳага, жумладан, таълим тизимига ҳам ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Баҳолашдаги ноҳақлик, танш-билишчилик, ноқонуний тўловлар каби ҳолатлар ёшларда

билим олишга бўлган ишончни сусайтиради. Бугунги ислохотлар доирасида касбий таълимда коррупциявий хавфларни камайтиришга қаратилган тизимли ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, таълим жараёнларини рақамлаштириш, электрон баҳолаш тизимлари, очиқ бюджет асосидаги молиявий бошқарув, жамоатчилик назоратини кучайтириш - буларнинг барчаси коррупция илдизларини қуритишга хизмат қилади. Бироқ техник воситалар қанчалик замонавий бўлмасин, агар инсон онгида ҳалоллик фазила-ти шаклланмаган бўлса, натижа сўст бўлади. Шунинг учун таълим мазмунига "Коррупцияга қарши маданият асослари" каби фан ва

машғулотларни киритиш лозим. Бу орқали ўқувчилар ўз муҳтида коррупция ҳолатларига қарши муросасиз муносабатда бўлишга ўрганади. Агар ёшларимиз бугундан ҳалоллик, адолат, қонунийлик принциплари асосида тарбияланса, эртага келажак авлод порахўрлик ёки манфаатлар тўқнашуви ҳақида эмас, фақат юксалиш ҳақида фикрлайди. Ҳар бир педагог бу борада нафақат ўргатувчи, балки ўрнак бўлиши зарур. Чунки ҳалоллик - ўз касбига, халқига ва Ватанига бўлган садоқатдан шаклланади. **Эргашжон МАМАТОВ,** Каттақўрғон хизмат кўрсатиш ва сервис техникуми ўқитувчиси.

Туризм соҳасида илмий мактаб яратган олим

Халқимизда "Устоз отангдек улуг", дейишади ва устозлик мақомига эришганларни қадрлашади. Шундай устозлардан бири туризм соҳаси ривожига катта ҳисса қўшган олим Искандар Тўхлиевдир.

Искандар Тўхлиев 1950 йилда Нарпай туманида дунёга келди. У Каттақўрғон шаҳридаги саккиз йиллик мактабни тамомлагач, Тошкент электро-механика техникумига ўқишга кирди. Техникуми тамомлаб, Тошкент политехника институтининг механика факультети талабаси бўлди. Институтни битириб, олий таълимдан кейинги таълимни давом эттиришга қарор қилди. 1976-1980 йилларда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси иқтисодиёт институти аспиранти, сўнгра мазкур институтнинг кичик, катта илмий ходими вазифаларида ишлади. Кейинги фаолияти Фанлар академиясининг Самарқанд вилоят бўлими билан боғланди. Дастлаб бу ерда илмий марказ бўлими мудир, раҳбари, бош илмий котиби лавозимларида меҳнат қилди. 2003-2006 йилларда Тошкент давлат техника университети иқтисодиёт ахборот тизимлари кафедраси профессори, маркетинг кафедраси мудир ва вазифаларида ишлади. Профессор И.Тўхлиев 2006 йилдан Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида педагог фаолиятини давом эттирди. Дастлаб кафедра мудирлиги сифатида меҳнат қилган бўлса, бугунги кунга қадар институтнинг



туризм кафедраси профессори лавозимида ишлаб келмоқда. И.Тўхлиев туризм соҳасидаги кўп йиллик илмий тадқиқот ишлари натижасида "Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш иқтисодиёти" йўналиши бўйича Ўзбекистонда илмий мактаб яратди. Мазкур мактабнинг шаклланиши давомида, унинг раҳбарлиги ва илмий маслаҳатчилигида бир нафар фан доктори, 12 нафар фан номзоди ҳамда 40 га яқин магистрлар тайёрланди. 400 дан ортиқ илмий-амалий мақолалари дунёнинг турли мамлакатларида нашр қилинди. Сўнгги 4 йил давомида 62 та, "Scopus"да учта, хорижий журналларда ўн олтита илмий мақола нашр эттирди. Профессор раҳбарлигида "Туризмни режалаштириш," "Туризм: назария ва амали-

ёт", "Меҳмонхона хўжалигида инновация" ва "Туризмда геоахборот тизимлари" номи дарсликлари олий таълим муассасалари учун ҳамда коллеж ва техникумлар талабаларига мўлжалланган "Туризм ва меҳмондўстлик асослари" номли ўқув қўлланмалар тайёрланган ва бугун ушбу адабиётлардан барча туризм таълим мактанлари фойдаланмоқда. Домла томонидан 2015-2022 йиллар мобайнида миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантириш бўйича олиб борган илмий-тадқиқот ишларини амалиётга жорий қилиш натижаларига Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлигининг 9 та ЭХМ учун дастурларга ва маълумотлар базаларига гувоҳнома берилган. Кейинги тўрт йил давомида мамлакатимизда туризм иқтисодиётини ривожлантириш, соҳага етуқ мутахассис кадрларни тайёрлашдаги ҳалол меҳнати туфайли И.Тўхлиев Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг фахрий ёрлиқлари, 1-даражали "Меҳнат фахрийси" ҳамда "Туризм фидойиси" кўкрак нишонлари билан тақдирланди. Биз, шоғирдлар устозимиз Искандар Суюновични таваллуд қуни билан табриклаймиз. Устозга узок умр, мустаккам соғлиқ, ишларига муваффақият тилаймиз. **Сарвар АБДУҲАМИДОВ,** Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти доценти, **Ойбек ҲАЙДАРОВ,** институт ўқитувчиси.

Shoir va yoshlar uchrashuvi



Nurobod tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Dolzarb 90 kun" dasturi doirasida ijodkorlar Eshboy To'rayev, Gulshan Shermatova ishtirokida adabiy-ma'rifiy kecha tashkil etildi. Tadbirda mehmonlar o'quvchilarga ijodiy faoliyati, hayotiy qarashlari va ilhom manbalari haqida so'zlab berishdi. O'zlarining sara asarlaridan namunalar o'qib, badiiy so'z qudrati orqali yoshlarda ijodga qiziqish uyg'otish mumkinligini ta'kidladilar. Tadbirda maktabning "Turon"

teatr to'garagi a'zolari mazkur ijodkorlarning she'r va dostonlaridan sahna ko'rinishlari namoyish etdi. Maktab o'quvchilarining iste'dodi va faol ishtiroki baholanib, ularning ijodkorlikka intilishi va kitobxonlikka bo'lgan ishtiyogi e'tirof etildi. Mulqot jarayonidagi ijodiy savol-javoblar, tajribali qalamkashlar tomonidan bildirilgan hayotiy maslahatlar tadbirga mazmun bag'ishlandi. **Nasiba BOBONAZAROVA,** maktabning "Turon" teatr to'garagi rahbari.



Yoz issiq kelsa-da, mevalari bilan soz...



Rabbim HOTAMOV olgan suratlar.



REKLAMA, E'LONLAR, ILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

RAHMAT SIZGA SHIFOKORLAR!

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini bugun xalqimiz o'z hayotida sezmoqda. Pensiyaadaman, yoshim yetmish ikkida. Yaqinda xastaligim sabab Samarqand shahridagi "Doktor otto" klinikasiga bordim. Klinika vrachi Rustam Sattorov tashxislardan so'ng asab tizimimda o'zgarishlar borligini aytdi. Uning tavsiyasi bilan qilingan muolajalar sabab salomatligim yaxshilandi. **Mendan o'z maslahati va amaliy yordamini ayamagan Rustam Sattorov hamda klinika rahbariyati va boshqa xodimlaridan minnatdorman. Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, el salomatligi yo'lida amalga oshirayotgan ishlar-ingizda muvaffaqiyat tilayman. Ilohim qo'lingiz dard ko'rmasin, aziz shifokorlar!** **Salima NORQULOVA,** Oqdaryo tumani.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Avliyayev Siroch A'lamovichga (2021-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Barbashina Valentina Mixaylovna (2024-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Malsev Valentin Vasilevichga (2018-yil 22-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Muminov Tolib Muxtarovichga (2024-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Muminov Tolib Muxtarovichga (2024-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Muminov Tolib Muxtarovichga (2024-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Muminov Tolib Muxtarovichga (2024-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***

"BULUNG'UR DEHQON BOZORI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

"Bulung'ur dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 14-iyul kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish kun tartibida "Bulung'ur dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischiligidagi "OBOD BOZOR" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyatini ixtiyoriy ravishda tugatish va uning yerini tuman hokimligi zaxirasiga qaytarib topshirish jarayonida "OBOD BOZOR" MCHJning tugalgan qurilish ishlariga sarflangan xarajatlarini baholangan qiymatda va 1.85 ga. yer uchastkasi bilan birga kompensatsiya evaziga Bulung'ur tumani hokimligi zaxirasiga o'tkazish, bunda kompensatsiya to'lovlarini Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berilishi masalasi ko'riladi. "Bulung'ur dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga shaxsan yoki ishonch qog'ozi orqali vakilimiz ishtirokini la'minlashingizni so'raymiz. **Manzil: Bulung'ur tumani Sohikkor ko'chasi. JAMIYAT MA'MURIYATI.**

Abdurafik Xalilovichga (2024-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.** ***

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Xalimov Salimga (2009-yil 29-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Sidorov Vladimir Pavlovichga (2022-yil 26-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Gafurov Jurakulga (2003-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Irga-

sheva Dilshoda Djamshetovna (2012-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Faxrodovich notarial idorasida marhum Rasulov Umarga (2020-yil 30-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Faxrodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-"B" uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Saidmurodov Ravshan Sultanovichga (2015-yil 11-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 14-xona.** ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Tashimova Pardaga (2013-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloeyevna notarial idorasida marhum

notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Lekonseva Gulnar Nusretovna (2021-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Lekonseva Gulnar Nusretovna (2021-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.** ***

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Kodirov Maxmudga (2020-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.** ***

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Azimov Furkat Abdullayevichga (2024-yil 9-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.** ***

BEKOR QILINADI Samarqand tumanidagi "QUALITY DESIGNERS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306851543) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Aёл муҳаббатдан иборат



Ишонмайсизми? Унда нега ишқ десак, севги десак, кўз олдимизда аёл сиймоланади? У яна шоира бўлса. Шоирлик – оғир қисмат. Шоирликнинг маъноси – кўнглини фош этиб яшамоқ. Бу ҳаётда кўнгли нималарни кечирмайди? Ҳатто фалончининг дардини ёздим, фалон ташбеҳу туйғуларни ҳам ундан олдим, деб минг ёзирсангиз ҳам, сизнинг қалбингиз бўйлаверди шеърлардан. Қолаверса, нафақат шоир, шоир ҳақда сўз айтган ҳам. Шеърим эсимга келади:

*Афсуски,
Шаффоф эмасман,
намоён бўлмаётган
иложини йўқ.
Бу ранглар
мени сотади.*

Назаримда нафақат адибу шуаро, оддий касбадигарлар, ҳаётда барчамиз сўзимиз, ишимиз, тутумимиз, ҳолимиз, меҳнатларимиз билан ўзимизни кўрсатиб – “сотиб” яшаймиз. Бироқ “сотмоқ” тушунчаси Шаҳодат Исахоннова ижодидат то маънода “меҳрибон топмаслик”, аксинча, сотқинлар ичра яшаш каби муштоз мазмун кашф этади. Маргиналлашган постмодернизм, яъни ҳамма қарашлар оммавий маданиятга мослашган замонда бу бироз галати туюлар. Бироқ вақти келиб замон бу бадиий юксаликнинг, идеалга интилишнинг кадрини англайди:

*Ё Раб... Бу не толе еру осмон сотди,
Қориб қадрини тупроққа арзон сотди.
Ёғийдан қилган эрдим эҳтиётимини,
Хўп доғда қолдириб дўсти нодон сотди.*

Ҳатто лирик қахрамоннинг ўз жони уни тарк этиш, сотиш даражасига этади: “Масеҳи Исони кутмай, бу жон сотди”. Шаҳодат Исахоннова шеърларининг фалсафийлиги, контрастларга бойлиги, образларнинг кескинлиги билан диққатимни тартади. Санъатнинг қуроли шу аслидаям.

Мен ҳам китобхон эл қатори адабани ўқувчилегимдан таниганман. Анча аввал чикқан “Кечиккан бахт” асари ҳануз ёдимда. Узоқ йиллар фарзанд кутиб ва ниҳоят умидига етганида кеч бўлганини англаган аёл изтироблар... Бахт нима, кечикканлик нима эканлигини шу китобча орқали хис этган бўлсам, эҳтимол.

Насрий асарлар битиб, сўнроқ назм яратишга ўтишнинг кейинги ижодга таъсири сезилиб туради. Шоира шеърларида хис-туйғулар, унинг кетидан келгувчи хулосалар конкретлик касб этади, шоиранинг қахрамони ташбеҳу туйғулар, бадиий метафоралар, ҳашаматли иборалар гирдобда ўралиб қолиб кетмайди. Тарихийлик, фольклор унсурларидан фойдаланиш ҳам ўта меъърида. Мен юксак тутган қадрият – шу.

Худди ўша тўғрилик, очиклик, Ватанга учқур муҳаббат билан ёзилган “Ватандошларга” шеърда шоира шундай ёзади:

*Боболаринг маконлари
сенга суянч, тоғ бўлар.
Момоларинг поий теккан
ерлар жаннат, бог бўлар.
Ўзга юртада шоҳ эсанг-да,
шараф эмас, доғ бўлар.
Гар тупроғи кўзларингни
Ёмса, тушдир Ватан...*

Шаҳодат Исахоннованин шундай шеърлари борки, бир роман учун бемалол сюжет бера олади. Мисол учун “таълим” радифили “Мувашшах”ни олсак. Одатда мувашшахлар бирор сана юзасидан бирор шахсга табрик сифатида ёзилди лекин бу шеър ўта жиддий асар. Агар бу шеър кейинги йилларда битилган бўлса, мумтоз фалсафий, илгарирок ёзилган (ийли кўрсатилмаган) бўлса, башоратли фалсафий шеър деб аталган бўларди. Асардан оладиган ҳаётий хулосалар эса барчага бирдек тегади. Ҳеч ким “гардун”нинг “дори”дан қочиб қутула олмайдди. Мазкур катта ҳаётга тегишли шеър мақоламизга сизга, албатта, топиб ўкинг. Қойилона ёзилган.

Шоира Навойининг “Сен бўлсанг, мен бу жаҳонда мавжуд”, деган сўзларини эпитаф қилиб “топдим мен сендан ўзимни” дея куйиб, мен, муҳлиснинг рашқини келтириб, дил изхор этади. Мен эса шоирага мурожаат этаман: “У ҳам ўзини сизда топган, фақат улар – фош қилмайдилар!” У яна айтади: “Кел” дегин, мен келсам, шеър келар, асли... Дўзах ўтига қоридилоқ ишқ-ла... Илҳоминг париси Хур келар, асли...” Худди шундай! Сиз муҳаббат-ла, сўнги кўринмас жозибали ижод-ла ёниб-ёндириб келасиз.

Бу дунёда мардларгина намоён бўлмоқ бахтидан сурурланиб яшашни биладилар.

*Муғанний, қўлингга олгил созингни,
Чорлагил, фидойи мард, жонбозингни!
Ноғоранг сасидан титрасин олам,
Кўрсатгил ёғийга кучинг, бозингни!
Борлиғи йўқликнинг маъноси - Лазги!
Ҳаёту мамотнинг биниси - Лазги!
“Лазги” ана шундай қудратга эга.*

“Лазги”дек гўзал шеърни яратган шарқлик ўзини бу қадар юксак пардада тантанавор маҳз этолмас. Инчунин, у Аёл бўлса... Аммо шоиранинг руҳи-кучи шу “Лазги” ортида намоён эмасми? Ахир, “Лазги”ни юксалтирган борлиғи йўқликнинг маъноси, ҳаёт ва ўлимнинг биниси эмасми? Шу маҳзия-шеърда “лал” этиб кўринган ҳаётинга, “хонумонингга ўт қўйганлар” қаршисига “олов, ялов” бўлиб мардона чиқилди лирик қахрамондан – шоира Шаҳодатдан! У мардлигини, кечинмаларини, алам-изтиробларини “Лазги”да ва бошқа шеърларида жонлантириб ўтади. Унинг характери, шахси асарлари ортида “манаман”деб кўринади.

Шоира асарларидаги “фанонинг қонунинг бузиб”, “ғолиба юрак” ташбеҳлари бежиз эмас. Шоира шахси ўзининг юксак эзгу ғоялари учун қотган жамият ақидаларига қарши бора оладиган фикрпараст ижодкор.

Шоиранинг лирик қахрамони андишали. Ҳатто шарқлик аёл-мунаққид сифатида мен ҳам. Нега лирик қахрамон эркил эмас? Чунки у шарқлик, у – “тутқун қуш”. У “ҳавони сипқориш илинжида”гина яшайди. Ҳатто лирик қахрамонимиз орзуга етганда ҳам тантанани қилмайди, дабдабага берилмайди. Шунчаки, чирогинг ёндими, девона кўнглим?” дея лутф эта-

ди. Бу Аёл муҳаббати, хоҳиш-ҳиссиётлари учун талабларнинг гўзал ва шарқона қўйилиши.

Бу кечинмалар Шаҳодат Исахоннованинг “Зебунисо” шеърда ёрқинроқ акс этган. У – Зебунисо, муҳаббати учун ўз отаси томонидан ўйда маҳбус этилган. Лирик қахрамон – шарқлик аёлнинг шахсий туйғулари юзинчи, мингинчи даражада. Инчунин, ўн еттинчи асрда! Шоиранинг Зебунисога бағишланган шеъри бутун Шарқ аёлларининг қисматини кўрсатишга қодир. Ҳатто бугун ҳам худди ўтмишдагидек аёл қайсидир маънода ўз муҳити, шароитининг қули.

Аслида инсоният, жамият эрки аёлнинг эркин ва маърифий-илмий онгли эканида намоён бўлади. Аёл ҳуқуқи барча замонларда ҳам муқамал кўзга ташланмаган. Аёлга муносабат инсониятнинг, жамиятнинг, қадимда шоҳларнинг ахлоқий тафаккурининг кўрсаткичидир (“Кудук билди “шоҳ”ингни, Мен қамишдай най бўлдим”). Бобурий шох Аврангзебнинг қизи Зебунисо ҳам ўз муҳаббати учун “товон тўлаган”, унинг севглисини қатл этишган. Шоира момоизнинг қисматини чин қалбдан куйиб, инсоннинг, аёлнинг кечинмаларини ижтимоий ўринга кўтариб, образли тарзда тасвирлайди

*Ох... Кездим ишқ бозорин,
Чекиб бор ғам, озорин.
Лек топмадим, ул ёрдек
Кўнглимнинг харидорин...
Давронингга ҳайф бўлдим,
Қисматимга шай бўлдим.
Кудук билди “шоҳ”ингни,
Мен қамишдай най бўлдим...
“Зебунисо” шеърни якунида муҳаббат шаробининг абадий ва ҳаётий бор эканлигига урғу берилди:*

*Умр асли неча йил?
Мен учун бир кеча йил,
Оғунгни бер, Шаҳодат,
Шаробинг деб ичайин...
Биласизми, нега Вильям Шекспирнинг
“Ромео ва Жульетта”си, Чингиз Айтматовнинг
“Жамила”си жаҳон адабиёти дурдоналари ҳисобланади.
Чунки булар ўз даврининг жаҳолатида
ўт қўйган, инсониятни жарга қулашдан
хушёр бўлишга қақирган, инсон юраги,
аёл кўнглининг жавҳари - муҳаббатга
интилиш олий идеал эканлигига даъват
этган маёқ асарлардир.*

Шундай дурдоналар Шаҳодат Исахоннова ижодида ҳам топилади ва умид этимизки, яна битилади. Фақат бу шеърятнинг моҳиятида самимият, очиклик, аёл қалби жозибасини ошқор айлаш, муҳаббатнинг абадийлигини, инсоннинг соҳир ва соф туйғулари мавжудлигини англаган ўқувчи бахраманд бўлишга қодир.

Рақамлаштириш ва сунъий идрок қадриятга айлантирилаётган яқин ўн йилликларда бу ёруғ ва ноёб юрак ҳиссиётлари ва уларни самимий ёритиб бера олиш ҳам топиб бўлмас воқеликка айланади.

**Гулшан РАҲИМ,
филология фанлари
номзоди.**



Бошланур

Мулоқот ибтидоси салом билан бошланур, Бор эзгулик мужассам калом билан бошланур.

Буюк ишлар бошида шоҳқалоқлар турмайди, Боқий ишлар оҳиста маром билан бошланур.

Ҳақиқий иззат-ҳурмат, совға-салом биланмас, Кўксингда илди этган иқром билан бошланур.

Чўли ирок, Тановар, Муножоту Дилхирож, Ҳофиз сеҳри навоси - мақом билан бошланур.

“Умумул китоб”да аён қаромат мўъжизалар, Кўқдан нозил этилган пайғом билан бошланур.

Инсон зотин қудрати ёқа ушлатган онлар Мисрда барпо бўлган эҳром билан бошланур.

Қувваи ҳофизингда вужудга келган зарра, О, бир гўзал туйғулар илҳом билан бошланур.

Нуриддин БОБОҚАНДОВ.



**Ватан
васфи**

Мўминлар ака-ука, деган асли Қуръонда.

Буни англамоқ лозим ҳар сония, ҳар онда.

Дуч келган ҳар бир одам, кулимсираб кўришгай,

Салом бермаган ёшни ёши улуг уришгай.

Одобимиз хўп яхши, кимни кўрса, чойга, дер.

Қўл кўксиди уэр деб, ҳозир зарур жойга дер.

Уйда нон бўлмай қолса, қўшнингига чопар.

Бир зумда хамир қориб, иссиқкина нон ёпар.

Бизнинг удуғ шунақа: борини аямайди,

Эртага оч қолгум, деб лоақал ўйламайди.

Жаннатмақон юртим бор, бунга ҳеч тегмасин кўзи!

Гоҳида ҳислатига, таърифиға топмам сўз.

Эпиграммалар

ҚУВОНЧ

Бир кашанда ўғил дер:

- Онажон, суюнчи бер!

Сигаретани ташладим,

нос отишни бошладим.

ПОРАХҲҶР

Порахўрликни доим Қоралаб сўзлар ўзи.

Ҳузурига кирсангиз,

чўнтакда икки кўзи.

ТАРБИЯ

Уқангни ҳеч урушма, билиб қўйгин, жон қизим.

Тегинсанг, кўзларингни ўйиб оламан ўзим.

**Нуриддин ЯҲЁЕВ,
Иштихон тумани.**

Ota-onangizdan uyalming

Yaqinda bir tanishim oilaviy tadbirga taklif qildi. Marosimga ota-onam bilan birga bordik. Tadbir boshlanguncha do'stlar bilan gurunglashib o'tirgandik, gapdan gap chiqib, tanishlardan biri «Qanday qilib shunday joyga ota-onangni olib kelding?», deb qoldi.

Shu payt davradagi suhbat to'xtab, hammaning nigohi men va shu gapni aytgan kishiga qaratildi. Albatta, bu gapdan keyin men qatori boshqalarning ham jahli chiqdi. Ammo vaziyatni yumshatish uchun kulib, xotirjam javob berdim:

- Bunday joylarga meni ilk bor olib kelgan ota-onam bo'ladi. Men hali yura olmaydigan, gapni tushunmaydigan, o'zim ovqatlanolmaydigan, to'g'ri o'tirolmaydigan paytda ham ular meni to'y-tomoshalarga olib borgan, men bilan faxr-lanishgan. Endi tantanalarda, do'stu birodarlar yonida shunday ota-onam borligi uchun ular bilan faxrlan-sam, bu uyat emas, balki men uchun sharaf.

Javobimdan so'ng hech kim lom-mim demadi, tanishim boshini quyi soldi...

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



Keyingi yillarda xalq bilan ishlaydigan davlat idoralari rahbar xodimlari kabinetdan chiqib, aholining ichiga kirib ishlayapti. Bu o'z navbatida, muammolarni joyida o'rganish va hal etilishida yaxshi samara beryapti. Xususan, viloyat, tuman darajasidagi rahbarlar sayyor qabullar tashkil etib, mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga topshiriq berib, natijasini so'rayotgan aholining og'irini yengil qilyapti. Ammo...

Odamlar sarson bo'lmasin

Hozir ham biror davlat idorasiga murojaat bilan borganda, ertaga keling, indin keling, deb eshik oldidan qaytarish holatlari uchray turibdi. Sababini so'rasangiz, rahbar ish bilan falon hududga ketgan, deyishadi. Shu taxlit mas'ul-ga bir muammoni yetkazish uchun bir idoraga uch-to'rt kun qatnashigizga to'g'ri keladi. Mahalla markaziga borib, biror mas'ulni so'rasangiz ham idorada yo'q. Yoki uning o'zi telefondi biror joyda ish bilan yurganini ro'kach qiladi.

Aholi muammolarini joyiga chiqib o'rganish yaxshi samara berayotgani bor gap. Ammo bundan ayrim ishiga mas'uliyatsiz rahbarlar shaxsiy ishlari bilan mashg'ul bo'lib, o'zi mas'ul bo'lgan ishlar o'lda-jo'lda qolayotganining guvohi bo'lyapmiz. Aytmoqchi bo'lganim, davlat rahbarining kabinetda o'tirmasdan, odamlar oldiga borib, ularni eshitish haqidagi chaqirg'ini suiiste'mol qilyotgan mas'ullar ham uchray turgani achainarli.

**Turdi TURSUNOV,
Payariq tumani.**

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

- 8-IYUL**
Qo'chqor QARSHIYEV – (1923-1945) yilda Ishtixon tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Qahramon.
- 9-IYUL**
Bekmurod YO'LDOshev – (1947-2017) Paxtach tumanida tug'ilgan. Filalogiya fanlari doktori.
- 10-IYUL**
Toshpo'lat TUGALOV – 1964-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.
- 13-IYUL**
Diyora KELDIYOROVA - 1998-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha jahon chempioni, ikki karra Osiyo chempioni, “Katta dubulg'a” turniri va Islom birdamligi o'yinlari g'olibi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 911 nusxada chop etildi. Buyurtma 318. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonang manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:
A.SHERXOLOV.

Navbatchi:
T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:
B.ABDULLAYEV.



ISSN-201667X
9 1772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda